

O'QUVCHINING NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lif fakulteti 2-G guruh talabalari
Bozorboyeva Diyora
Karimova Dilnura
Bayrambayeva Ayjahan

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning nutq kompetensiylarini rivojlantirish, ularning qanday ahamiyatga egaligi, vazifalari, nutqni tezroq rivojlantiruvchi mashqlar, chiroyli gapira olish san'ati, nutqni tinglovchiga ta'sirchan tarzda yetkazish va shu kabilar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'quvchi, nutq, kompetensiya, notiqlik, ritorika, nutqni rivojlantirish, mashq, san'at, ishonch.

Abstract: This article talks about the development of students' speech competences, their importance, tasks, exercises that develop speech faster, the art of speaking beautifully, conveying speech to the listener in an effective way, and so on.

Key words: student, speech, competence, speaking, rhetoric, speech development, exercise, art, confidence

Insonga fikrini ifoda etish uchun sezgi organlaridan biri sifatida Alloh tomonidan til berildi. Aqlni esa inson ixtiyoriga qoldirdi. Endi inson bolasi aqlini ishga solib, tili orqali so'zlar (nutqi)ni ifodalashga kirishdi. Yaratgan Egam tanamizdagi sezgi organlarimizdan biri til (zabonimiz)ni ehtiyyot qilib joylagan. Unga o'ttiz ikkita tishlarimiz ortidan joy berib, yana lablar bilan berkitdi. Bu suyaksiz tilimizga ehtiyyotkorlik chorasi ham edi. Chunki shu bir parcha (go'sht) til orqali: yaxshilik va yomonlik; go'zallik va xunuklik; mehribonlik va yovuzlik; baxt va baxtsizlik; mansab va itoatkorlik; boylik va kambag'allik; do'stlik va dushmanlik; visol va ayrılıq; obro' va obro'sizlik; omad va omadsizlik; ezgulik va johillik; mehnatsevarlik va dangasalik; halimlik va qo'pollik; havas va hasad; taraqqiyot va zalolat; yarashish va janjal; tinchlik va urush; ruhiy tetiklik va tushkunlik; sog'lomlik va bemorlik; izzat va sharmandalik; xursandchilik va dilxiralik; madaniyatililik va madaniyatsizlik kabi bu foni yunyoda mavjud bo'lgan barcha narsaga erishish mumkin.

Alloh zabon bergen har qanday inson notiq bo'la oladi. Notiq o'zi kim degan savolga birgalikda javob topamiz. Notiq- bu nutq so'zlovchi, gapga chechan, gapga usta shaxsdir. Notiqlik o'zi aslida juda katta qurol bo'lib hisoblanadi. Sobiq ittifoq davrlarida ko'pincha notiqlarni o'ldirib yuborishgan, chunki ular sodda xalqni o'z so'ziga ishontirib, ularni ozodlik tomon yo'naltira olgan. Notiq o'zidan-o'zi notiq bo'lib qolmaydi. Ular notiq darajasiga yetgunga qadar bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Notiqlarda, avvalo, o'ziga bo'lgan ishonch bo'lishi kerak. Xalqni biron-bir voqe-a-hodisaga ishontirishdan avval o'zi shunga

ishonishi kerak. Bilim ham chinakam notiq hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Tajriba esa eng asosiy hislatdir. Ishonch + Bilim + Tajriba bu uchchalasi notiqlikning formulasi hisoblanadi. Notiq bo'lishga endi harakat qilayotgan insonlar ko'pincha kitob o'qishlari kerak. Kitob bo'lganda ham marketing, menejment, shaxsiy rivojlanish to'g'risidagi kitoblarni emas, badiiy kitoblarni o'qish kerak. Tog'ri, bu kitoblar ham foydali, bilimni oshiradi nutqni emas. Badiiy kitob o'qiganimizda bizda badiiy tasavvur kengayadi, tushuncha paydo bo'ladi, badiiy asarlarda sinonimlardan, ko'chma ma'noli so'zlardan, badiiy tasvir vositalaridan keng foydalilaniladi. Shuning uchun ham badiiy asarlar inson nutqini o'stirishda asosiy o'rinni egallaydi. So'zlarni to'g'ri va ravon talaffuz qilishni o'rganishning oson usuli bu tez aytishlarni ko'proq aytishdir. Masalan, ushbu tez aytish judayam katta samara beradi. "Namanganda usta Musa puch pistafurush bo'lgan ekan, o'sha usta Musa puch pistafurushning oltmis uch pud puch pistasi bo'lgan ekan. Oltmis uch pud puch pistasi bo'lsa ham, o'sha uchta Musa puch pistafurush ekan, oltmis uch pud puch pistasi bo'lmasa ham, o'sha usta Musa puch pistafurush ekan.

O'quvchining nutq kompetensiyalarini rivojlantirish uchun, avvalo, o'qituvchi chinakamiga notiq bo'lishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarini nutqi bilan fanga qiziqtira olishi, o'zi so'zlayotgan fikrga ishontirishi, bilimi va tajribasi bilan o'quvchilarning e'tiborini tortishi darkor. Nutq so'zlash jarayonida o'qituvchi o'zini ertin tutishi, o'rta ovozda, nutq jarayoniga muvofiq holda ish ko'rib, tinglovchini o'ziga zabit eta olishi muhim hisoblanadi. Yana so'zlash jarayonida qisqaroq hajmdagi, yaxshiroq ma'lumotlarni ko'proq yetkazish o'rinali bo'ladi.

Mashhur qadimgi yunon notig'i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffuzi yomon, nafasi qisqa bo'lganligidan chiroqli va ta'sirli nutq ayta olmagan. Keyinroq Demosfen nutq texnikasi asoslarini egallahga juda jiddiy kirishgan. U bir yerto'la qazib, shu yerto'lada ovozini rivojlantirish, diksiya, deklamatsiya bo'yicha oylab mashqlar qiladi. Talaffuzidagi nuqsonlar, «r» tovushini aytolmaslik, ba'zi tovushlarni noaniq aytish kabilarni bartaraf etish maqsadida og'ziga mayda toshlarni solib, she'rlar, turli matnlarni o'qish bilan shug'ullanadi. Ovozini rivojlantirish, ovoz apparatlarini chiniqtirish uchun esa tepaliklarga yugurib chiqib, yugurib tushib, nafasini ushlab turgan holda she'rlarni deklamatsiya qiladi. Demosfen gapirayotganda, bir yelkasini hadeb ko'taraverish odatidan qutulish uchun yerto'lasining shiftiga uchi o'tkir xanjarni osib qo'yib, yelkasini xanjarning ayni uchiga to'g'rilab turib, mashqlarini davom ettiradi. Ana shunday mashaqqatli va muntazam mashqlar tufayli Demosfen notiqlikning yuksak cho'qqisini zabit etgan.

Xulosa o'rnida bizning birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning "O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin", - kabi so'zlarini keltirib o'tsak o'rinali bo'ladi. Darhaqiqat, ona tilimizda ravon rapirish, har qanday insonni yaxshilik tomon yo'naltira olish bizning vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. 0 ‘quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006.— 119 b.
2. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev. -T., 2002-yil
3. E.Begmatov. Nutq madaniyati muammosining paydo bo'lishi va asoslanishi // Nutq madaniyatiga oid masalalar. -T., Fan, 1971-yil.
4. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., O'qituvchi, 1991-yil
5. E.Qilichev, B.Qilichev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002-y.